

**BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/29.04.2022.Tib.93.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**ZIYADULLAYEV ABDUSALOM XABIBULLA O‘G‘LI**

**TIZZA BO‘G‘IMI DEFORMATSIYALOVCHI OSTEOARTRITINI 2-TIP  
QANDLI DIABET FONIDA DAVOLASHNING KLINIK-MORFOLOGIK  
ASOSLARI**

**14.00.02 – Morfologiya  
14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya**

**tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Ziyadullayev Abdusalom Xabibulla o‘g‘li**

Tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartritini 2-tip qandli diabet fonida davolashning klinik-morfologik asoslari.....3

**Зиядуллаев Абдусалом Хабибулла угли**

Клинико-морфологические основы лечения деформирующего остеоартрита коленного сустава, на фоне сахарного диабета 2-типа.....27

**Ziyadullayev Abdusalom Khabibulla ugli**

Clinical and morphological principles of treatment of deforming osteoarthritis of the knee joint, against the background of type 2 diabetes mellitus..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published scientific works .....55

**BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/29.04.2022.Tib.93.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**ZIYADULLAYEV ABDUSALOM XABIBULLA O‘G‘LI**

**TIZZA BO‘G‘IMI DEFORMATSIYALOVCHI OSTEOARTRITINI 2-TIP  
QANDLI DIABET FONIDA DAVOLASHNING KLINIK-MORFOLOGIK  
ASOSLARI**

**14.00.02 – Morfologiya  
14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya**

**tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Tib4452 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.bsmi.uz](http://www.bsmi.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar**

**Teshayev Shuxrat Jumayevich**  
tibbiyot fanlari doktori, professor  
**Akramov Vohidjon Rustamovich**  
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar**

**Rasulov Xamidulla Abdullayevich**  
tibbiyot fanlari doktori, professor  
**Xamraev Alisher Shaxobovich**  
Tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot**

**Dog‘iston davlat tibbiyot universiteti  
(Rossiya Federatsiyasi)**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.04.2022.Tib.93.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

(Manzil: 200116, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 23-uy. Veb-sayt: [www.bsmi.uz](http://www.bsmi.uz), e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz) )

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200116, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 23-uy.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.R.Mirzoeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, tibbiyot fanlari doktori(DSc)

**N.Q.Do‘stova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori(DSc)

**A.R. Obloqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Tayanch-harakat tizimi kasalliklari orasida osteoartrit nafaqat keng tarqalganligi, balki komorbid patologiyaning, jumladan qandli diabetning yuqori chastotasi oqibatida klinik tibbyotning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. "Global Burden of Disease Collaborative network" ning 2023 yildagi malumotlariga ko‘ra, «... qandli diabet 371 mln. (7%); tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti 147 mln. (4.7%) odamlarda uchraydi...»<sup>1</sup>. Tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartritining qandli diabet 2-tipi fonida kechishida adekvat davolash standartlarining ishlab chiqilmaganligi, konservativ davolashdagi kamchiliklar, hamda davolashni to‘g‘ri olib borilmasligi nafaqat asoratlarning kelib chiqishiga balki ish faoliyatining pasayishiga va nogironlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Jahon miqyosida tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligining qandli diabet fonida kechishida davolashni optimallashtirish, davolash natijalarini yaxshilash, shuningdek, asoratlar sonini qisqartirishga ko‘maklashadigan davolashning takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa ham 2-tip qandli diabet, ham osteoartrit rivojlanish xavfi bo‘lgan kesishuvchi genlar - PPAR $\gamma$ , FTO, ADIPOQ, RAGE ni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilgan, qaysiki ularning komorbid kechishi patogenezida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan oqsillar ekspressiyasida ishtirok etadi. Tadqiqotlarda surunkali giperglikemiya, insulinrezistentlik, glikirlanishning yakuniy mahsulotlari (advanced glycation age products, AGE) ning osteoartrit va qandli diabet asoratlarning rivojlanishidagi patogenetik ahamiyati isbotlangan. Osteoartrit progressiyalanishida yallig‘lanish mexanizmlari, gumoral va hujayraviy immun javobning tog‘ay to‘qimasi komponentlariga ta‘siri muhokama qilinmoqda.

Mamlakatimizda tayanch-harakat tizimi kasalliklari, xususan tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti bilan kasallangan bemorlarda davolash tadbirlarining yuqori samaradorligiga erishish, rehabilitatsiyasini takomillashtirish maqsadida ulkan hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti kasalligini qandli diabetning 2-tipi fonida davolashda plazmoliftingdan foydalanish kabi masalalar hal etilmagan. Asoratlarning yuqori chastotasi, mehnat qobiliyatining pasayishi va ularni bartaraf etishdagi kamchiliklar muammoni yoritish zaruratini tasdiqlaydi. 2022 - 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni yanada rivojlantirish, jumladan «...tibbiy xizmatning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, patronaj xizmati va dispanser boshqaruvining samarador modellarini yaratish orqali sog‘lom turmush tarzi va kasalliklar oldini olish...»<sup>2</sup> bo‘yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib bemorlarda tizza

<sup>1</sup> <https://ghdx.healthdata.org/organizations/global-burden-disease-collaborative-network>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligini qandli diabetning 2-tipi fonida davolashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni takomillashtirish, kasallanish ko'rsatkichlari va uning asoratlari kamaytirish imkonini beradi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi PF-6110-son «Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son «Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** "Global Burden of Disease Collaborative network"ning 2023 yildagi ma'lumotlariga ko'ra tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartriti (DOA) kasalligi 2-tip qandli diabet fonida kechishini tashxislash va davolashga doir muammolari hozirgi zamon ortopediya fanining yetarli darajada o'rganilmagan va takomillashtirilmagan yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu holatda davo usullariga ko'rsatmalar ishlab chiqish, davo taktikasini tanlash va ushbu bemorlarga operativ aralashuvlarni tanlash hamroh kasalliklarsiz kechayotgan tizza bo'g'imi DOAga nisbatan keskin farqlanadi va davo muolajalarini to'g'ri olib borilmasligi nafaqat turli asoratlarning kelib chiqishiga, balki inson ish faoliyatining keskin pasayishiga va erta nogironlikka sabab bo'ladi (Хисомов К.Х., и соавт., 2023).

2-tip qandli diabet va metabolik sindromli bemorlarda DOA rivojlanish xavfi yuqori, chunki bu bemorlarda metabolik kasalliklarning eng yuqori chastotasi va og'irlik darajalari aniqlangan (Williams M.F., London D.A., et al., 2016).

Qandli diabetda bo'g'im to'qimalariga zarar yetkazadigan va DOA rivojlanishiga hissa qo'shadigan tizimli yallig'lanishdan tashqari, giperglikemiya ham hujayralarga to'g'ridan-to'g'ri shikastlovchi ta'sir ko'rsatadi, bu esa turli mexanizmlar orqali yallig'lanishni keltirib chiqaradi. Glyukozaning yuqori konsentratsiyasi bo'g'im to'qimalariga mahalliy toksik ta'sir ko'rsatadi, mahalliy oksidlanish stressini, sitokinlar, proteolitik fermentlarning ta'sirini kuchaytiradi va glikozilirlanishning yakuniy mahsulotlari (advanced glycation end products (AGEs)) to'planishiga olib keladi (Cho N., Shaw J., Karuranga S. et al., 2017).

DOA ikkita parallel kechadigan jarayon bilan tavsiflanadi: artikulyar tog'ay va subxondral suyakning hujayradan tashqari matritsasining parchalanishi va sintezi jarayonlarini tartibga solishda asosiy rol sitokin tizimiga tegishli (Жураева Х.И., Бадриддинова Б.К., 2020).

Artrozda yaqqol patomorfologik o'zgarishlar tog'ayga tushadigan matritsada sodir bo'ladi. Ular tog'ayning progressiv eroziyasining rivojlanishiga va II-tipdagi kollagen tolalarining yo'q qilinishiga, shuningdek proteoglikan makromolekulalari

degradatsiyasiga olib keladi. Tog'ay almashinuvining buzilishi proteoglikanlar-tog'ay matritsasining asosi bo'lgan kollagen tarmog'i strukturasi barqarorligini ta'minlaydigan oqsil-polisaxarid komplekslarining miqdoriy va sifat o'zgarishlariga asoslanadi. Artrozda tog'ay shikastlanishi proteoglikanlar va kollagen tarmog'ini yo'q qiladigan xondrotsitlardan kollagenaza va stromelizin (metalloproteinaza) sintezining kuchayishi natijasida yuzaga keladi (Лукашевич П.Ю. и соавт., 2017).

Morfologik jihatdan artroz ko'pincha suyak elementlarining shikastlanishidan ancha oldin yumshoq to'qimalarda o'zgarishlar bilan boshlanadi. Artrozni tavsiflovchi asosiy patologik o'zgarishlarga quyidagilar kiradi: artikulyar tog'ay tushishi, osteofitlarning shakllanishi, subxondral suyakning qalinlashishi, boylamlarning shikastlanishi, bo'g'im kapsulasi va sinovial membrananing yallig'lanishi (Тронко М.Д., 2020). Tizza bo'g'imining artrozida patofiziologik jarayonlarning quyidagi ketma-ketligi tavsiflangan: 1) tog'ay yupqalashishi; 2) bo'g'im bo'shliqlari va xaltachalarida erkin suyuqlikning to'planishi; 3) boylamli apparatdagi degenerativ-distrofik o'zgarishlar. Kasallikning birinchi yillarida artikulyar tog'ayda maksimal yo'qotish, shuningdek, subxondral suyakdagi yaqqol ifodalangan o'zgarishlar sodir bo'lganligi sababli, davolanishni patologik jarayonning dastlabki bosqichlarida boshlash kerak (Бялик В.Е., и соавт., 2018). Yupqalashgan tog'ay qoplarning shakllanishi va natijada artikulyar yuzalar o'rtasida bosimning notekis taqsimlanishida mahalliy ortiqcha yuklamalar paydo bo'ladi, osteoskleroz joylari paydo bo'ladi, shuningdek, subxondral kistalar va osteofitlar hosil bo'ladi (Кирилина С.И. и соавт., 2020). Tizza bo'g'imining deformatsiyalovchi artriti bilan og'rigan bemorlarda son suyagining mineral zichligi, ayniqsa uning medial o'siqlarida past bo'ladi (Кравченко А.И. и соавт., 2017). Bemorlarda kasallikning kuchayishi bilan osteofitlar sonining ko'payishi va bo'g'imlarning torayishi bilan bir qatorda, son suyagi bo'ynidagi suyak to'qimalarining mineral zichligi o'rtacha 2,5-2,7% gacha darajada pasayadi (Алексеева Л.И., и соавт., 2019). Shu bilan birga, gonartrozli bemorlarda tizza bo'g'imlarining qon bilan ta'minlanish xususiyatlari o'zgaradi. Shunday qilib, kasallikning 2-darajasida pulslil qon oqimi parametrlarining assimetriyasi son suyagining lateral va medial o'siqlarining intramedullar to'qimalarida paydo bo'ladi. Biroq, son suyagi o'siqlarida bu o'zgarishlar kuzatilmaydi. Ushbu assimetriyaning sabablaridan biri bo'lgan son suyagining o'siqlaridan tashqarida joylashgan rezistiv tomirlarning spazmi va uning ichida joylashgan rezistiv tomirlarning kengayishini hisobga olish kerak (Свириденко А.С. и соавт., 2016).

Shu nuqtai nazardan, 2 – tip qandli diabet fonida kechayotgan tizza bo'g'imi DOA da davo natijalarini yaxshilash, asoratlar ulushini keskin kamaytirishga yo'naltirilgan davo usullarini takomillashtirish dolzarb vazifadir.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat tibbiyot institutining (01.2022 DSc 142) ilmiy-tadqiqot ishlarining rejasiga muvofiq «COVID-19 dan keyingi davrda Buxoro vohasi aholisi salomatligiga ta'sir etuvchi patologik omillarni erta aniqlash, tashxislash hamda yangi davolash profilaktika usullarni ishlab chiqish (2022-2026 yy.)» mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** 2-tip qandli diabet fonida kechuvchi tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligining davolash natijalarini klinik morfologik yondashuv asosida yaxshilashdan iborat bo'lgan.

**Tadqiqot vazifalari:**

tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligi 2-tip qandli diabet fonida kechgan bemorlarda bo'g'im strukturasiidagi morfologik va gistokimyoviy o'zgarishlarni aniqlash;

tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligi 2-tip qandli diabet fonida kechgan bemorlarda bo'g'im tarkibiy tuzulmalarida CD3, CD20 va Ki 67 markyorlari yordamida immunogistokimyoviy xususiyatlarini o'rganish;

2-tip qandli diabet fonida kechayotgan tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligida kam invaziv operativ davo usulini takomillashtirish;

tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligi 2-tip qandli diabet fonida kechgan bemorlarda davolash natijalarini baholash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Buxoro viloyati "STAR ORTHOMED" xususiy klinikasinida 2-tip qandli diabet fonida kechayotgan tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligi tashxisi bilan davolangan 125 nafar bemorlar o'rganilgan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida 2-tip qandli diabet fonida kechayotgan tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligida o'tkazilgan klinik, rentgenologik, MRT va morfologik tekshirish ko'rsatkichlari xizmat qilgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni amalga oshirish davomida klinik, rentgenologik, MRT, morfologik, laborator va statistik usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qandli diabetning 2-tipi fonida kechuvchi tizza bo'g'imi DOAda tog'ay to'qimasi matriksida shish, kechki bosqichlarda hujayraviy komponentlar miqdorining kamayganligi, tog'ay to'qimasi tarkibida neytral va nordon mukopolisaxarid, glikozaminglikanlar va shilliq moddalar miqdorining oshganligi morfologik va gistokimyoviy usulda asoslangan;

DOA qandli diabetning 2 tipi fonida kechishida T- va B-limfotsitlar ishtirokining past darajada ekanligi, T-limfotsitlar ishtiroki 1,26 martaga kam ekanligi, B-limfotsitlar 1,86 martaga hamda proliferativ faollik 1,53 martaga kamayganligi immunogistokimyoviy usulda CD3, CD20 va Ki 67 markyorlarining ekspresiyalanishiga ko'ra asoslab berilgan;

ilk bor, qandli diabetning 2 tipi fonida kechuvchi tizza bo'g'imining og'ir darajali natijadorligi past bo'lganligi, DOAni davolashda artroskopik debridementlash va selektiv yoki total genikulyar denervatsiyalash amaliyotlarini kompleks qo'llashga asoslangan takomillashtirilgan kam invaziv operativ davolash usulini ratsional davo sifatida qo'llanishi va natijadorligi isbotlangan;

DOA tashxislangan bemorlarda klinik va rentgenografiya, hamda MRT kabi instrumental tadqiqot usullarining natijalariga qo'shimcha ravishda qand kasalligi oqibatida tizza bo'g'imidagi o'ziga xos morfologik o'zgarishlar va qon tarkibidagi qand miqdorini inobatga olgan holda davo taktikasi va usullarini qo'llash davo natijalarini sezilarli yaxshilanishiga zamin yaratishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qandli diabetning 2 tipi fonida kechuvchi tizza bo'g'imi DOA da tizza bo'g'imi tarkibiy tuzilmalarining morfologik, gistokimyoviy va immunogistokimyoviy o'zgarishlari amaliy tibbiyotda foydalanish uchun tavsiya etilgan;

artroskopik debridementlash va selektiv yoki total genikulyar denervatsiyalash amaliyotlarini kompleks qo'llash asosida takomillashtirilgan kam invaziv operativ davu usuli qandli diabet 2-tip fonida kechuvchi og'ir darajali, natijadorlik past bo'lgan tizza bo'g'imi DOAni davolashda ratsional davu sifatida qo'llanilishi va natijadorligi asoslangan;

qandli diabetning 2-tip fonida kechuvchi DOA bilan kasallangan bemorlarda klinik va rentgenografiya, hamda MRT kabi instrumental tadqiqot usullari natijalariga qo'shimcha ravishda qon tarkibidagi qand miqdori va tizza bo'g'imida qand kasalligida o'ziga xos morfologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda davu taktikasi va usullarini qo'llashda davu natijalarining sezilarli yaxshilanishi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy ishda qo'llanilgan usullarning adekvat tanlovi, bemorlar sonining yetarliligi, zamonaviy klinik, rentgenologik, MRT, morfologik tekshiruv usullari va laborator tahlillardan foydalanilganligi, olingan natijalarning statistik tekshirish usullari yordamida qayta ishlanganligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining xalqaro hamda mahalliy ilmiy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, olingan natijalar hamda chiqarilgan xulosalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qandli diabetning 2-tip fonida kechuvchi tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartritida tog'ay to'qimasi matriksida shish, kechki bosqichlarda hujayraviy komponentlar miqdorining kamayganligi, tog'ay to'qimasi tarkibida neytral va nordon mukopolisaxarid, glikozaminglikanlar va shilliq moddalar miqdorining oshganligi morfologik va gistokimyoviy usulda asoslanganligi, T va B limfotsitlar ishtirokining past darajada ekanligi immunogistokimyoviy usulda CD3, CD20 va Ki 67 markyorlarining ekspresiyalanishiga ko'ra asoslab berilganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qandli diabetning 2-tip fonida kechuvchi tizza bo'g'imi DOAda artroskopik debridementlash va selektiv yoki total genikulyar denervatsiyalash amaliyotlarini kompleks qo'llash asosida takomillashtirilgan kam invaziv operativ davu usuli tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartritini davolashda ratsional davu sifatida qo'llanilishi va uning natijadorligi asoslanganligi, klinik va rentgenografiya, hamda MRT kabi instrumental tadqiqot usullari natijalariga qo'shimcha ravishda qon tarkibidagi qand miqdori va tizza bo'g'imida qand kasalligi asosida o'ziga xos morfologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda davu taktikasi va usullarini qo'llash davu natijalarini sezilarli yaxshilanishi asoslab berilganligi bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartritini 2-tip qandli diabet fonida kechganda tizza bo'g'imidagi morfologik o'zgarishlariga asoslangan holda davu profilaktikasiga yangicha yondashuv yo'llarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalarga asoslanib:

*birinchi ilmiy yangilik* qandli diabetning 2-tipi fonida kechuvchi tizza bo'g'imi DOAda tog'ay to'qimasi matriksida shish, kechki bosqichlarda hujayraviy komponentlar miqdorining kamayganligi, tog'ay to'qimasi tarkibida neytral va nordon mukopolisaxarid, glikozaminglikanlar va shilliq moddalar miqdorining oshganligi asoslab berilgan takliflari Buxoro davlat tibbiyot instituti Ekspert Kengashi 2024 yil 28 oktyabrdagi № 24-m/076-son ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan “ Tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartritini 2-tip qandli diabet fonida kechishida tizza bo'g'imi to'qima tarkibiy tuzulmalarining morfologik va immunogistokimyoviy xususiyatlarini aniqlash usulini muvofiqlashtirish ” uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Buxoro viloyat Patologik anatomiya byurosi bo'yicha buyruq 12.11.2024 yil. № 48-sondagi hamda Xorazm viloyat Patologik anatomiya ekspertiza byurosi 12.11.2024 yil № 88-son buyrug'i bilan amalyotga joriy qilingan.( O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2025 yil 20 martdagi 14/34-son xulosasi) Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi taklif etilgan tashxislash taktikasi qandli diabetning 2-tipi fonida kechuvchi tizza bo'g'imi DOAda morfologik tekshirish ma'lumotlariga asoslangan tartibida xastalikning o'ziga xos xususiyatlari kasallikni erta tashxislash va davolash samaradorligini oshirish imkonini bergan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quydagilardan iborat: qandli diabetning 2-tipi fonida kechuvchi tizza bo'g'imi DOAda tog'ay to'qimasi tarkibida neytral va nordon mukopolisaxarid, glikozaminglikanlar va shilliq moddalar miqdorining oshganligining morfologik jihatlarining o'ziga xosligi tashxislashda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan bitta tashxis uchun 450000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan va iqtisodiy samaradorlikga erishilgan.

*ikkinchi ilmiy yangilik* DOA qandli diabetning 2 tipi fonida kechishida T- va B-limfotsitlar ishtirokining past darajada ekanligi, T-limfotsitlar ishtiroki 1,26 martaga kam ekanligi, B-limfotsitlar 1,86 martaga hamda proliferativ faollik 1,53 martaga kamayganligi immunogistokimyoviy usulda CD3, CD20 va Ki 67 markyorlarining ekspresiyalanishiga asoslanib immunogistokimyoviy usulda isbotlab berilgan. Takliflari Buxoro davlat tibbiyot instituti Ekspert Kengashi 2024 yil 28 oktyabrdagi № 24-m/076-son ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan “ Tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartritini 2-tip qandli diabet fonida kechishida tizza bo'g'imi to'qima tarkibiy tuzulmalarining morfologik va immunogistokimyoviy xususiyatlarini aniqlash usulini muvofiqlashtirish ” uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Buxoro viloyat Patologik anatomiya byurosi bo'yicha buyruq 12.11.2024 yil. № 48 -sondagi hamda Xorazm viloyat Patologik anatomiya ekspertiza byurosi 12.11.2024 yil № 88-son buyrug'i bilan amalyotga joriy kilingan.( O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2025 yil 20 martdagi 14/34-son xulosasi). Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi taklif etilgan tashxislash tartibi DOA qandli diabetning 2 tipi fonida tizza bo'g'imi to'qima tarkibiy tuzulmalaridagi morfologik, gistokimyoviy va immunogistokimyoviy ma'lumotlari asosida bu kasalliklarning kelib chiqishi, rivojlanishi va klinik-morfologik ahamiyatini baholanganligi kasallikni tashxislash hamda travmatolog va ortoped shifokorlarga samarali davolash taktikasini tanlash imkonini bergan. Ilmiy

yangilikning iqtisodiy samaradorligi quydagilardan iborat: qandli diabetning 2 tipi fonida deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligining o'ziga xos klinik-morfologik xususiyatlariga asoslanib tashxislashda immunogistokimyoviy markerlardan foydalanib tashxislash uchun byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan bitta tashxis uchun 630000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan va iqtisodiy samaradorlikga erishilgan.

*uchinchi ilmiy yangilik* ilk bor, qandli diabetning 2 tipi fonida kechuvchi tizza bo'g'imining og'ir darajali natijadorligi past bo'lganligi, DOAni davolashda artroskopik debridementlash va selektiv yoki total genikulyar denervatsiyalash amaliyotlarini kompleks qo'llashga asoslangan takomillashtirilgan kam invaziv operativ davolash usulini ratsional davo sifatida qo'llanishi va natijadorligi isbotlab berilgan. Takliflari Buxoro davlat tibbiyot instituti Ekspert Kengashi 2024 yil 28 oktyabrdagi № 24-m/064-son ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan " Tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartritini 2-tip qandli diabet fonida kechishida davolash usulini muvofiqlashtirish " uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Navoiy viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi 09.10.2024 yil № 64-son hamda Buxoro viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi 19.10.2024 yil № 02/710-son buyruq bilan amalyotga joriy qilingan.( O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2025 yil 20 martdagi 14/34-son xulosasi). Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi taklif etilgan 2-tip qandli diabet fonida DOAni davolashda artroskopik debridementlash va selektiv yoki total genikulyar denervatsiyalash amaliyotlarini kompleks qo'llashga asoslangan kam invaziv operativ davolash usulini ratsional davo sifatida qo'llanishi bemorlarning hayot sifatining yaxshilanishi, nogironlikning oldini olishga qartilganligini isbotlangan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quydagilardan iborat taklif etilgan artroskopik debridementlash va selektiv yoki total genikulyar denervatsiyalash amalyotini 2-tip qandli diabet fonida DOAni davolash uchun byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan bitta tashxis uchun 525352 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan va iqtisodiy samaradorlikga erishilgan.

*to'rtinchi ilmiy yangilik* DOA tashxislangan bemorlarda klinik va rentgenografiya, hamda MRT kabi instrumental tadqiqot usullarining natijalariga qo'shimcha ravishda qand kasalligi oqibatida tizza bo'g'imidagi o'ziga xos morfologik o'zgarishlar va qon tarkibidagi qand miqdorini inobatga olgan holda davo taktikasi va usullarini qo'llash davo natijalarini sezilarli yaxshilanishiga zamin yaratishi isbotlangan. Takliflari Buxoro davlat tibbiyot instituti Ekspert Kengashi 2024 yil 28 oktyabrdagi № 24-m/064-son ma'lumotnomasi bilan tasdiklangan " Tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartritini 2-tip qandli diabet fonida kechishida davolash usulini muvofiqlashtirish " uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Navoiy viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi 09.10.2024 yil. № 64-son hamda Buxoro viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi 19.10.2024 yil. № 02/710-son buyruq bilan amalyotga joriy kilingan.( O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2025 yil 20 martdagi 14/34-son xulosasi). Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi taklif etilgan qandli diabetning 2 tipi fonida kechuvchi tizza bo'g'imining DOA davolashga morfologik o'zgarishlar va qon tarkibidagi qand

miqdorini inobatga olgan holda kam invaziv operativ davolash usullarini qo'llash davo natijalarini sezilarli yaxshilanish imkonini bergan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quydagilardan iborat: morfologik o'zgarishlar va qon tarkibidagi qand miqdorini inobatga olgan holda qandli diabetning 2 tipi fonida kechuvchi tizza bo'g'imining DOA davolashda kam invaziv operativ davolash usullarini qo'llash uchun sarf xarajatlarga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lardan 695000 iqtisod qilish imkonini bergan va iqtisodiy samaradorlikga erishilgan.

*Ilmiy yangilikdan kengaytirilgan holda foydalanishi:* «Tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartritini 2-tip qandli diabet fonida davolashning klinik-morfologik asoslari» mavzusida ilmiy yangilikni boshqa sog'liqni saqlash muassalariga joriy etish bo'yicha Buxoro davlat tibbiyot institutining 2024 yildagi 21- dekabrda 04/13015-son xati Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xotima, xulosalar, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 106 betni tashkil etgan .

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy ishning respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari keltirilgan, olingan ilmiy natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining amaliy sog'liqni saqlashga joriy qilinganligi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**2-tip qandli diabet fonida tizza bo'g'imining deformatsiyalovchi osteoartriti davolashning klinik-morfologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida xorijiy hamda mahalliy olimlarning tadqiqotlarini o'rganish asosida, 2-tip qandli diabet fonida kechuvchi tizza bo'g'imlari DOA bo'lgan bemorlarda bo'g'imlar tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganishning zamonaviy klinik va instrumental usullari, ushbu kasallikdagi morfologik o'zgarishlar, hamda jarrohlik davolashning minimal invaziv usulini takomillashtirishning ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Qandli diabetning 2-tipi fonida kechayotgan tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartriti mavjud bemorlar umumiy tavsifi, tadqiqot materiali va usullari**», deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot

davomida foydalanilgan material va usullar tavsiflangan.


Ilmiy tadqiqot ishi Buxoro davlat tibbiyot instituti va “Star Ortomed” xususiy klinikasida 2019-2023 yillar davomida statsionar davolangan jami 125 nafar qandli diabetning 2-tipi fonida kechayotgan tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti mavjud bemorlarning klinik ma’lumotlari tahliliga bag‘ishlangan.

Barcha 125 nafar bemorlar nozologik birliklar va davo taktikasi usuliga ko‘ra 3 guruhga bo‘lingan: 1 taqqoslash guruhi – tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti mavjud 35 nafar bemor, ushbu bemorlar an’anaviy usulda davolangan; 2-taqqoslash guruhi-qandli diabet fonida kechayotgan tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti mavjud 40 nafar bemorlar, ushbu bemorlar ham an’anaviy usulda davolanishgan; qolgan 50 nafar bemor - qandli diabet fonida kechayotgan tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti tashxisi qo‘yilgan va ushbu bemorlarga davo maqsadida taklif etilayotgan usul qo‘llanilgan.

Ilmiy tadqiqot ishida tadqiqot materiali sifatida: davolangan bemorlar kasallik tarixlari, davolash protokollari, klinik tadqiqot usullari, radiologik tekshiruv usullaridan: rentgenografiya, magnit rezonans tomografiya, laborator tekshiruv natijalari olingan.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishiga 125 nafar bemorlar jalb etilgan bo‘lib, ular yosh va jins toifalari bo‘yicha bo‘linishgan. Tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti yosh guruhlarida orasida 45-59 yosh orasida ko‘pchilikni tashkil qilib, 65 (52%) nafar bemorda uchragan, ikkinchi o‘rinda 60-80 yoshlilarda uchrab 40 (32%) klinik holatda qayd qilingan. 35-44 yosh guruhida esa eng kam sonli bemorlar aniqlanib, 20 (16%) nafarida qayd etilgan.

Jins bo‘yicha bemorlar taqsimlanish ma’lumotlari tahlili: ushbu patologiya odatda ayollar orasida ko‘pchilikni tashkil etib, erkaklarga nisbatan 2:1 va 3:1 nisbatni tashkil qiladi. Barcha tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti bilan og‘rigan bemorlar etiologik omillarga ko‘ra tavsiflangan, ma’lumotlar 1-rasmda keltirilgan.



**1-rasm. Bemorlarning kasallik etiologik omillariga ko‘ra bo‘linishi**

Barcha 125 nafar bemor gonartroz kasalligining rentgenologik o'zgarishlari Kellgren va Lawrence (1957) tasnifiga ko'ra og'irlik darajalariga bo'lingan. Asosan bemorlar 2, 3 va 4 og'irlik darajasini tashkil etgan.

Tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartriti bilan kasallangan barcha 125 nafar bemorda klinik va funksional o'zgarishlar – tizza bo'g'imi sindromi baholangan. Ushbu sindromga og'riq sindromi - Leken indeksi natijalari, tizza bo'g'imida bukish va yozish harakatlari va tizza bo'g'imi sohasidagi shish sindromi darajasi kiritilgan. Tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartriti mavjud bemorlarda tizza bo'g'imi funksional holatini baholash maqsadida goniometriya tekshiruv usulidan foydalanilgan. Tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartritida tizza bo'g'imi harakat amplitudasining turli darajadagi chegaralanishlari o'lchangan va ma'lumotlar normativlarga nisbatan qiyosiy baholangan. Tizza bo'g'imi rentgenografiyasi standart 2-proyeksiya: old va yon proyeksiyalarda amalga oshiriladi. Ushbu tekshiruv "Carmen Plus" xususiy klinikasi rentgen tashxisot bo'limida Flexavizion SDR-100 NW (Yaponiya) apparatida o'tkazilgan.

Tadqiqot davomida davodan oldin va keyingi davrlarda bemorlarda magnit rezonans tomografiyasi usulida tekshirish o'tkazilgan. Tekshiruv Niderlandiya davlatida ishlab chiqarilgan Philips Ingenia Ambition 1.5 TS MRT tomograf apparatida amalga oshirilgan. MRT da bo'g'im bo'shlig'i holati, bo'g'imda erkin suyuqlik mavjudligi, bo'g'im tog'ayi o'lchamlari, menisklar, old va orqa xochsimon boylamlar holati, shuningdek suyak to'qimasidagi struktur o'zgarishlar mavjudligi tahlil qilingan.

Tadqiqotning asosiy ob'ektlari sifatida tizza bo'g'imi deformatsiyalovchi osteoartriti qandli diabet 2-tip fonida kechgan bemorlar tizza bo'g'imidan olingan operativ materiallardan tayyorlangan gistologik preparatlar bo'lgan. Umumiy morfologik tekshirish uchun gematoksilin-eozin bo'yog'idan foydalanilgan. Gistokimyoviy tekshirish usullaridan VAN-Gizon usuli to'qima tarkibidagi birlashtiruvchi to'qimaga xos bo'lgan kollagen tolalarini aniqlashda ishlatiladi.

Gistologik tekshirishlarda kasalliklarga aniq ishonchli tashxis qo'yish uchun immunogistokimyoviy usullardan foydalanilgan. Immunogistokimyoviy usulda ajratib olingan to'qimalar namunalarini immunogistokimyoviy usulda o'rganish uchun 24 nafar tayyorlangan gistologik preparatlar ajratib olingan, hamda CD3, CD20 va Ki 67 markyorlari o'rganilgan. Natijalarni baholashda QuPhat 4.4.0 dasturi yordamida morfometrik tekshirishlar 5 ko'ruv maydonida 200-400 marta kattalashtirilgan holda bajarilgan. Ekspressiyalanish darajasi 20% bo'lganda (past darajadagi ekspressiya), 20-60% bo'lganda (o'rta darajadagi ekspressiya) va 60% dan yuqori bo'lganda (yuqori darajadagi) deb baholangan.


Olingan natijalarni statistik qayta ishlashda ahamiyatli o'zgarishlar sifatida qabul qilingan:  $R \leq 0,05$ . Korrelyatsion va regression tahlil mustahkamligini tekshirish uchun Fisher mezoni, Student t- va F-mezoni qo'llanilgan. Ko'rsatkichlardagi farqlar  $p < 0,05$  ahamiyatlilik darajasida statistik ahamiyatga ega deb hisoblangan. Mann-Whitney U-testi normal ma'lumotlar taqsimoti belgilari bo'lmagan hollarda mustaqil populyatsiyalarni solishtirish uchun ishlatilgan. Mann-Whitney U-mezonining hisoblangan qiymatlari ma'lum bir muhimlik

darajasidagi kritik qiymatlar bilan taqqoslangan: agar hisoblangan U qiymati kritik qiymatga teng yoki undan kam bo'lsa, farqlarning statistik ahamiyati tan olingan.

Dissertatsiyaning **“Tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti 2-tip qandli diabet fonida kechayotgan bemorlarda klinik-laborator, morfologik va instrumental tadqiqot natijalari tavsifi”**, deb nomlangan uchinchi bobida, tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligi va uning qandli diabet fonida kechishida bo‘g‘imdagi to‘qima tarkibiy qismlarida yuzaga kelgan morfologik o‘zgarishlar va immunogistokimyoviy tavsifi o‘rin olgan.

Tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti mavjud 35 nafar bemor va 45 nafar qandli diabet fonida kechayotgan tizza bo‘g‘imi deformatsiyalovchi osteoartriti mavjud bemorlardan olingan materiallar makroskopik va umumiy morfologik tekshirishlar uchun ajratib olinib, ularda makroskopik, umumiy morfologik, gistokimyoviy va immunogistokimyoviy tekshirish usullaridan foydalanib kasallik uchun xos bo‘lgan morfologik o‘zgarishlar o‘rganilgan.

Tog‘aydagi o‘zgarishlar: Makroskopik jihatdan deformatsiyalovchi osteoartridga tog‘ay yanada rangsiz, yumshoq va g‘adir-budur notekis ekanligi aniqlandi. Bo‘g‘im yuzasining ayrim qismlarida tog‘ay qavati yo‘qolib subxondral suyak ko‘rinadi, fibrillyatsiyalar, yoriqlar aniqlandi. Mikroskopik jihatdan proteoglikanlarning sezilarli darajada kamayishi, xondrotsit hujayralarining to‘planishi va bu hujayralarning kamayishi hamda ayrim qismlarda aniqlanmay bo‘sh lakunalar aniqlandi (2-rasm).




**2-rasm. Tizza bo‘g‘imi DOA bilan kasallangan bemor tog‘ay to‘qimasining mikroskopik ko‘rinishi.** Gematoksilin-eozin bo‘yog‘i bilan bo‘yalgan, 200 marta kattalashtirilgan. Tog‘ay to‘qimasida xondrotsit hujayralari kamaygan, xondrotsit hujayralari bir biriga yaqin to‘planib joylashgan o‘choqlar mavjud (1).

Kasallikning erta bosqichlarida tog‘ayning hajmi oshadi, tog‘ay tarkibidagi proteoglikanlar hisobidan suvni tortib oladi va keyinchalik matrics tarkibidagi II-tip kollagen shikastlanadi. Tog‘ay to‘qimasi tarkibidagi proteoglikanlar miqdori

kamayadi, bu holat ularning kuchaygan ekspressiyasi va fermentlarning faolligi sababli yuzaga keladi. DOA kasalligining rivojlanib kuchayib borishi natijasida bo'g'im tog'ayi matriksining fibrillyatsiyasi va yorilishi keyinchalik bularning chuqurlashuvi kuzatildi. Bu yoriqlar doimiy jismoniy zo'riqishlar natijasida tarqaladi. Bo'g'im tog'ayidagi patologik proteolitik jarayon bo'g'im tog'ayining rivojlanib kuchayib boruvchi kamayishiga olib keladi. Tog'ay to'qimasi tarkibida matriksda tog'ay oraliq moddasi tarkibida shish yuzaga kelganligi, tog'ay to'qimasi tarkibidagi hujayraviy komponentning qandli diabet fonida kechuvchi DOA ning kechki bosqichlarida miqdorining nisbatan kamayganligi, to'qima tarkibida polisaxaridlar, nordon mukopolisaxaridlar, glukozaminglikanlar va shilliq moddalarning miqdorining DOAda nisbatan biroz oshganligi aniqlandi (3-rasm).


DOA va qandli diabet fonida kechuvchi DOA materiallarida morfologik jihatdan suyakdagi o'zgarishlarni o'rganib chiqilganda quyidagi natijalar olindi. Bo'g'imdagi kaltsifikatsiyalanmagan tog'ay va kaltsifikatsiyalangan tog'aylar orasidagi farqqa qaraydigan bo'lsak kaltsifikatsiyalangan tog'ay qismi chuqurroq hisoblanadi va bu bo'g'im suyagining subxondral qavati boshlang'ich qismi hisoblanadi. Deformatsiyalovchi osteoartrit kasalligining rivojlanishi jarayonida tarkibida nerv va tomir saqlovchi kanal suyagi kaltsifikatsiyalanib boshlaydi. Odatda bu kaltsifikatsiyalangan qavatda qon tomir va nerv bo'lmaydi. Kaltsifikatsiyalangan tog'ay qavatidan pastroqda subxondral suyak plastinkasi joylashgan bo'lib kasallikning erta bosqichlarida bu suyak plastinkasining ishqalanishi va yupqalashishi kuzatilib, bunda remodellanish jarayoni suyak rezorbtitsiyasini qo'llab quvvatlaydi.



**3-rasm. Qandli diabetning 2-tipi fonida DOA bilan kasallangan bemor subxondral suyak to'qimasining mikroskopik ko'rinishi.** Alsian ko'ki bo'yog'i bilan bo'yalgan, 200 marta kattalashtirilgan. Suyak to'qimasidagi nordon mukopolisaxaridlar miqdori biroz oshgan (1).

Qandli diabet bilan kasallangan bemorlarda DOAda suyak to'qimasida o'zgarishlar kuzatilib farqli ravishda suyak to'qimasida nordon mukopolisaxaridlar

miqdori biroz oshganligi aniqlandi va subxondral suyak to‘qimasi tarkibida kollagen tolalarning DOAga qaraganda biroz kamayganligi, qon tomirlar va ularning devorida sklerotik o‘zgarishlar va to‘laqonlik belgilari aniqlandi (4-rasm).



**4-rasm. Qandli diabet fonida DOA bilan kasallangan bemor subxondral suyak to‘qimasining mikroskopik ko‘rinishi.** Van-gizon usulida bo‘yalgan, 200 marta kattalashtirilgan. Subxondral suyak to‘qimasi tarkibida tartibsiz joylashgan kollagen tolalar (sklerotik o‘zgarishlar) (1) va qon tomirlarda qon miqdorining oshishi to‘laqonlik belgilari(2).


Deformatsiyalovchi osteoartritda sinovial patologiyalar kuzatildi, bularga sinovial yallig‘lanish infiltrati, qon-tomirlar to‘laqonligi, sinovial qavatlarning giperplaziyasi, sinovial qavat sub intima qavatining fibrozi kuzatiladi. Yallig‘lanish infiltrati va giperplaziyasining darajasi va og‘irligi biroz o‘zgaruvchan bo‘g‘imning boshqa tipik yallig‘lanish artritlaridan farqli o‘laroq misol uchun revmatoidli artritdan farqli bo‘ladi. Deformatsiyalovchi osteoartrit bilan kasallangan bemorlarning sinovial pardasi giperplastik, yallig‘lanish, fibroz, va detritlarga boy hisoblanadi.

Bundan tashqari sinovial qavatdagi hujayralar qavatida hujayralarning o‘lchamlarining kattalashishi kuzatildi, sinovial qavatdagi yassi hujayralarning sitoplazmasi hajmi oshadi, hujayralarning shakli o‘zgarib kubsimon va sinlindsimon shaklga kirib qolganligi aniqlandi. Deformatsiyalovchi osteoartritning kechki bosqichlarida fibroz va detritlarga boy morfologik o‘zgarishlar yuzaga keldi. Deformatsiyalovchi osteoartritning fibrozli sinovopatiyasida sinoviyal qavatning shilliq osti qavatida ko‘p miqdorda kollagen tolalarning to‘planishi kuzatiladi.

Ki-67 (proliferativ index), CD3, va CD20 ekspressiyalanishi darajasi foizlar hisobida baholandi. Markyorlar ekspressiyalanish bo‘yalishi miqdoriy jihatdan nisbiy foizlar hisobida baholandi va past, o‘rta va kuchli darajadagi ekspressiyalanish deb baholandi va bu ko‘rsatkichlar:


- 0 (bo‘yalishning yo‘qligi);
- 1+ (<20% hujayralar, past bo‘yalgan);
- 2+ (20-60% hujayralar, o‘rtacha darajada bo‘yalgan);
- 3+ (>60% hujayralar, kuchli darajada bo‘yalgan), tasnifga ajratilgan.

Tizza bo'g'imi DOA va qandli diabet 2-tipi fonida kechuvchi DOAda Ki 67 markyoring ekspressiyalanish darajasini o'rganib chiqilganda DOA guruhida o'rtacha ekspressiyalanish darajasi past bo'lib 5,35% ni tashkil qildi, qandli diabetning 2-tipi fonida kechuvchi DOAda prroliferativ faollik 3,48% ni tashkil qildi (5-rasm).



**5-rasm. Qandli diabetning 2-tipi fonida DOA bilan kasallangan bemor tog'ay to'qimasidagi Ki67 markyoring past darajadagi ekspressiyalanishi, musbat ekspressiya 5,35%.** Dab xromogen usulida bo'yalgan, 200 marta kattalashtirilgan.

